

## DAVLAT KADASTRLARI YAGONA TIZIMIGA KIRITILADIGAN DAVLAT KADASTRLARINING AXBOROTINI TAQDIM ETISH TARTIBI

**Xujakeldiyev Komil Nosirovich**

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish"  
kafedrasida t.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.*

**Ibodillayev Fazliddin Faxriddinovich**

*"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va  
agrotexnologiyalar instituti "Irrigatsiya va melioratsiya" kafedrasida assistent o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Yer, foydali qazilma konlari, texnogen hosilalar, hayvonot dunyosi, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, suvlar, o'rmonlar, o'simliklar va hayvonot dunyosi, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni texnogen havfi yuqori bo'lgan chegaralar ishlab chiqarish va is'temol chiqindilarini ko'mib tashlash va utillashtirish joylari, binolar va inshootlar, geodeziya punktlari, avtomobil yo'llari va temir yullar, transport va muhandislik kommunikatsiyalari davlat kadastrlarining ob'yektlari hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Kadastr, ryestr, geodeziya, texnogen hosilalar, yig'ma jild, konlar, xarita, plan, inventarizatsiya, utillashtirish, muhandislik kommunikatsiyalari, pasport.

**Аннотация.** Земля, месторождения полезных ископаемых, продукция техногенного происхождения, животный мир, особо охраняемые природные территории, воды, леса, растительный и животный мир, особо охраняемые природные территории с повышенными уровнями техногенной опасности, полигоны и места захоронения отходов производства и потребления, здания и сооружения. сооружения, геодезические пункты, автомобильные и железные дороги, транспортные и инженерные коммуникации являются объектами государственных кадастров.

**Ключевые слова:** Kadastr, реестр, геодезия, техногенная продукция, коллективный объем, шахты, карта, план, описание, утилизация, инженерные коммуникации, паспорт.

Davlat kadastrari - Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi hamda u davlat kadastrari yuritiladigan tabiiy, xo'jalik ob'yekti yoki boshqa ob'yekt muayyan turining geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdor, sifat tavsiflari va bahosi to'g'risidagi yangilanib turiladigan ma'lumotlar va hujjatlar tizimidan iborat bo'ladi.

Davlat kadastrlarining yagona tizimi O'zbekiston Respublikasi va uning ayrim hududlari tabiiy-iqtisodiy salohiyatining yagona umumdavlat hisob-kitobi yuritilishini, baholanishini ta'minlashga mo'ljallangan ko'p maqsadli axborot tizimi tarzida yaratiladi.

Davlat kadastrlarini yuritishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

-Kadastr ob'yektlarining har bir turi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining butun hududini to'la qamrab olish:

-fazoviy koordinatalarning yagona tizimini qo'llash:

-kadastrga doir axborotni shakllantirish uslubiyatining yagonaligi:

-kadastrga doir axborotning aniqligi.

Davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, maxsus vakolatli organ va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat kadastrlarini yuritish tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat kadastrlarini yuritishga quyidagilar kiradi:

▪ kadastr ob'yektlariga bo'lgan mulk huquqi va boshqa huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish;

▪ kadastr ob'yektlarining miqdor va sifat tavsifini hisobga olish;

▪ kadastr ob'yektlarini sifat va qiymat jihatidan baholash;

▪ kadastrga doir axborotni tizimga solish, saqlash va yangilab borish;

▪ kadastr ob'yektlarining holati haqida hisobotlar tuzish;

▪ davlat kadastrlari yagona tizimig kiritish uchun tegishli axborot taqdim etish;

▪ foydalanuvchilarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kadastrga doir axborot bilan ta'minlash.

Kadastr ob'yektlarining mulkdorlari hamda kadastr ob'yektlariga doir boshqa huquqlarning egalari tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar mahalliy davlat hokimiyati organlariga kadastr ob'yektlarining geografik joylashuvi, huquqiy miqdor, sifat tavsiflari va bahosi to'g'risida, shuningdek ularning xolatidagi joriy o'zgarishlar haqida axborot taqdim etishlari shart.

Davlat kadastrlarini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Davlat kadastrlarini yuritilishini moliyalashtirish davlat budjeti tomonidan amalga oshiriladi.


### **Kadastr ob'yektlariga bo'lgan hujjatlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish.**

Kadastr ob'yektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish yuridik va jismoniy shaxslarning kadastr ob'yektlariga bo'lgan huquqlari davlat tomonidan e'tirof etilishi va tasdiqlanishining yuridik hujjati hisoblanadi. Kadastr ob'yektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish hujjatlar bilan tasdiqlangan axborotlarni davlat ryestrlariga kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Kadastr ob'yektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish kadastr ob'yektlarining barcha mulkdorlari va kadastr ob'yektlariga doir boshqa huquqlarning egalari uchun majburiydir. Kadastr ob'yektlarini hisobga olish vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining tegishli bo'linmalari tomonidan kadastr ob'yektlarining chegaralari doirasida, shuningdek aholi punktlari, tumanlari, mintaqalar hamda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ularning holati undagi va undan foydalanilishiga ko'ra boriladi.

Kadastr ob'yektlarini baholash sifat va qiymat jihatidan baholashni o'z ichiga oladi. Kadastr ob'yektlarini sifat jihatidan baholash tabiiy va jismoniy tavsiflari asosida amalga oshiriladi. Kadastr ob'yektlarini qiymat jihatdan baholash ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Kadastr ob'jektiga bo'lgan mulk huquqini va boshqa huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlar, ob'jektning kadastr xaritasi (plani), kadastr kitobi, kadastr ob'yektlarining asosiy turlaridir. Kadastr yig'ma jildi kadastr ob'jektiga bo'lgan huquqni shakllantirish, hisobga olish va keyinchalik davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun zarur bo'ladigan kadastr ob'jektini kadastr suratiga olish, texnik inventarizatsiya qilish va pasportlashtirishning, maxsus tekshirish va izlanishlarning, sifat va qiymat jihatidan baholashning hujjatlari, materiallari va ma'lumotlaridan iborat bo'ladi.



**1-rasm. Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish sxemasi**

Kadastr xaritasi (plani) kadastr ob'yektlari joylashgan yerni, ularning chegaralari, muhofaza chegaralari, baholash, miqdor va sifat tavsiflarini aks ettiruvchi grafik chizma hujjati hisoblanib, u kadastr ob'yektlarining geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdor hamda sifat jihatdan tavsiflari va bahosi haqidagi ma'lumotlardan

iborat bo'ladi. Kadastr ob'ektlarining holati to'g'risidagi hisobot davlat kadastrining har bir turi bo'yicha belgilangan tartibda tuziladi hamda kadastr ob'ektlarining alohida hududlar va butun O'zbekiston Respublikasi bo'yicha miqdor va sifat holati, bahosi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

#### **Xulosa.**

Davlat kadastrlariga doir axborotni davlat hokimiyati organlarini bepul, boshqa va jismoniy shaxslarga esa belgilangan tarzda haq evaziga taqdim etiladi. Davlat bir yaratilgan davlat kadastriga doir axborotdan foydalanish qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Davlat kadastrlari to'g'risidagi qonun xujjatlarni buzganlik uchun javobgarlik. Davlat kadastrlari to'g'risidagi qonun hujjatlarning buzilishida aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mirzaliev T., Safarov E.Yu., Egamberdiev A., Qorabaev J.S. Atlas kartografiyasi. O'quv qo'llanma. –Toshkent.: «Universitet», 2015
2. O'.Muxtorov, A.Inamov. "Geoaxborot tizim va texnologiyalar" fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha o'quv qo'llanma. T.TIMI.2017
3. Xujakeldiyev Komil Nosirovich., Shog'darov Doniyor Dilshod o'g'li. Zamonaviy GAT dasturlari orqali qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish kartalarini tuzish. pedagogs legal, medical, social, scientific journal Volume-5, Issue-1, March-2022
4. Nodirbek O'tkir o'g', s., Shuxrat o'g'li, t.p., & Chori G'ofur o'g', b. (2022). Qarshi bosh kanalidagi № 6-nasos stansiyasiing ekspluatatsion holati va energiya sarfi. jahon ilmiy tadqiqot jurnali , 9 (1), 192-196.
5. Nodirbek O'tkir o'g, s., & Orif o'g, tmr (2022). Bosim quvurini gidravlik zarbani so'ndirish hisobi. ta'lim yangiliklari: 21-asrda tadqiqotlar , 1 (4), 134-138.